

ULUG'BEK HAMDAMNING "MUSULMON" HIKOYASIDA KONFLIKT

Karimova MahliyoXon Mahkamjon qizi.

FarDU 2-kurs magistranti

+998905351634

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Ulug'bek Hamdamning "Musulmon" hikoyasi tahliliga bag'ishlangan. Tahlil davomida asardagi konfliktning turlari, uning syujetni boshqarishdagi roli va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу рассказа Улугбека Хамдама «Мусульманин». В ходе анализа мы говорим о видах конфликта в произведении, его месте и роли в управлении сюжетом.

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the story "Muslim" by Ulugbek Hamdam. During the analysis, we talk about the types of conflict in the work, its place and role in managing the plot.

Kalit so'zlar: Xarakter, konflikt, mahorat, obraz, syujet, detal

Ключевые слова: Персонаж, конфликт, мастерство, образ, сюжет, деталь.

Key words: Character, conflict, skill, image, plot, detail.

Ulug'bek Hamdam zamonaviy adabiyotning yetakchi ijodkorlaridan biri. Uning, roman va hikoyalari o'quvchini mushohadaga, mulohazaga undashi bilan xarakterli hisoblanadi. Masalan, "Ko'nglimdagi daryo", "Unutilgan nay navosi", "Ko'zini ochib yumgan odam", "Pillapoya", "Bir og'iz so'z", "Bir piyola suv", "Musulmon" hikoyalarining har birida hajm tor,voqealar tig'iz, ammo ularda romanga arzugulik teran ma'no mujassam. Ya'ni janrning kichik jussasi, yelkasiga romanga xos salobatli yuk ortilgan. Eng muhimi, unda so'nggi yillar adabiyotimizda, qolaversa, jahon adabiyotida ham kam uchraydigan o'zida buyuk goyalarni tashuvchi, biri-borga intiluvchi qahramonlar bo'y ko'rsatayotir. Chunonchi, "Ko'nglimdagi daryo"da erkinlikda keng quloch yoyishni istaydigan, boshqacha, hech kimga o'xshamagan qalb pokligi sari odimlash ishtiyoqi bilan yongan qalbi daryo odamning o'y-mushohadalari o'quvchini befarq qoldirmaydi. "Pillapoya"dagi qahramon hayotda o'z yo'lini topishga bo'lgan intilishi, boshqalar o'ylamagan, balki hech kimga qizig'i bo'lmagan, anglash ishtiyoqidan

yuqori bo'lgan, mantiqsizlik makon tutgan manzil tomon odimlaydi. "Bu mo'jiza o'zimcha mavjud bo'lgan har qanday haqiqatdan yuksakroq va kuchliroq tuyuladi men uchun", - deydi u. "Musulmon" hikoyasida aka-uka Hasan bilan Husan orasidagi diniy e'tiqod va real hayot, bu yorug' dunyo gulto'ji atalmish inson oldidagi burch muammosiga yondashuv xususida butun asar davomida reallik va qisman sirli, sehrli g'aroyibot orasida kechgan voqea va hodisalar, bahs-munozaralar ifodasi, talqini oxir-oqibat inson himmatining ustivorligi, asarga epigraf qilib olingan Hazrat Navoiyning "Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay" degan tasdig'i bilan boshlanadi. Bu epigraf asarning g'oyasini ochishda muhim ahamiyat kasb qiladi. Bir onadan talashib tushgan egizaklar xarakter har xil. Bir boshqa dunyo yana boshqasi umuman boshqa olam.

Bir hovlida Hasan va Husan birgalikda istiqomat qiladi. Ular madrasada ta'lim olishib diniy bilim olishadi. Ikki aka-uka egizaklar lekin, ikki xil dunyo, ikki xil xarakter. Yozuvchi qahramonlar portretini quydagicha tasvirlaydi: Hasan ko'p aql o'rgatadigan o'zini gapini ma'qullab boshqalarni eshitmaydigan, faqat savob uchun namoz o'qiydigan, xuddiki jannatga yo'llanmasi bor insondek o'zini tutadigan, yordam qo'lini cho'zmaydigan xudbin obrazi gavdalandirilgan. Husan esa, uning aksi bo'lib, ko'proq tabiat bilan suhbat quradigan, kuni bilan derazadan qarab daraxt shoxlariga qo'ngan qushlarni tomosha qilib o'tiradigan, janjallarga xohishi yo'q, hech kimdan yordam qo'lini ayamaydigan kishi obrazidir. Hasan Husan bilan ko'p tortishadi "Bo'sh vaqtingni qushlarni kuzatish bilan o'tkizgincha nomozni kechiktirma"¹-deb xitob qiladi. Ko'rinib turibdiki, qahramon har bir vaqtini ibodatga sarflaydi. Husan unga faqat ibodatni bahona qilishi, biror yordam kerak bo'lsa "Avval ibodat keyin madad" degan gapida Hasanning ishga bo'lgan layoqatsizligi kimgadir yordam qo'lini cho'zmasligi qahramon xarakteridan anglashildi. Aka-uka yashaydigan uyga qo'shnisi Hasan va Husanni otasi kasalligi haqida xabar berib ularni ogohlantiradi. Husan darrov yo'lga tushishni aytsa, Hasan shoshilmay borish kerakligi haqida aytadi. Qahramonlarimiz otasini oldiga Toshkentga borishganda shifokorlar otasini qon bosmi ko'tarilganini aytishadi. Onasi ham keksa yoshga borgan bo'lsada tinmasligini, o'zini sog'lig'iga o'zi qaramasligini aytadi. Aka uka otasi tuzalguncha qolib so'ngra madrasasiga qaytgach juma nomoziga tayyorgarlik ko'rishadi. Hasan Husanni ko'p undasada Husanni ko'zlari hech bir qushga o'xshamas antiqa qushlarni izlaydi. Xo'sh, Husanga nega buncha qushlar yoqib qoldi, bu qushlarni nimasi o'ziga bunchalik tortar edi buni o'zi ham bilmasdi. Juma nomoziga borguncha ham qushlar Hasan va Husanga hamroh bo'lib uchishdi. Ular hatto Toshkentga ham aka-ukalarga hamroh bo'lib borishgan edi. Masjidga kirganida hamma yig'ilgan edi. Hasan iloji boricha oldinroqqa borishga harakat qilgandi. Ikki aka-uka o'rtasiga bir kishi kelib o'tirganda Jo'nayd

¹ Hamdamov U. "Musulmon" hikoyasi, "Yoshlik" 2010

domla ma'ruzasini boshlaydi. Shunda kechroq kelib o'tirgan kishi bezovta bo'lib oxiri oyog'ini oldinga uzatib " xudoga shukur" deydi shu payt yuqoridan shiftni bezagi sifatida qilingan ganj bo'lagi tushganda Husan xavotir olib u insonni hol-ahvolini so'raydi. Hasan esa hech narsa bo'lgani yo'q hammasi joyida deb atrofdagilarni tinchlantiradi. Husan yordam berish kerakligini Hasanga aytib bazur uni o'rnidan qo'zg'atadi Hasan istar-istamas unga yordamlashib tashqariga olib chiqadi. U kishi siz boravering men sababli nomozdan qolmang, degan sari Hasan tezroq bo'l, ketdik deya xitob qiladi. Shunda Husanni jahli chiqib insonga yordam berishi kerakligi ahvoli og'irlig'ini aytadi. Hasan bo'lsa yigirma yetti savobdan quruq qolamanmi deb darvoza tomonga qarab yurganda daraxt shoxida turgan qushlar go'yoki ketma degandek uning atrofida aylanadi. Husan Hasanning orqasidan:

- Sen faqat joynomozda musulmonsan mo'minsan tashqarida esa unuman aksisan Hasan deya achchiq gapirib qoladi. Hasan ortiga qaramay yugurib ketadi. Husan yarador kishiga yordam beradi, taksi to'xtatib o'zi bilan birgalikda shifoxonaga olib boradi. Hikoyaning boshidan oxirigacha ikkalasi o'rtasida o'zaro konflikt bo'ladi. Ushbu konflikt xarakterlararo konflikt deb yuritiladi. Shu bilan birga, yozuvchi ezgulik g'oyasini, iymon g'oyasini haqiqiy musulmonlikning birinchi sharti sifatida gavdalantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solijonov Y., Ko'zgudagi hayot.,-T.,2013
2. Vladimirova N.O'zbek hikoyalarida g'oya va obraz,-T.:Fan, 1989.
3. Hamdamov U. "Musulmon" hikoyasi, "Yoshlik" 2010
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari, -T.: O'zbekiston, 2001
5. Quronov D, Adabiyot nazariyasi asoslari .-Toshkent: Noshir, 2019